

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI
ABDURAUF FITRAT KO‘CHASIDA HARAKAT MIQDORI VA TEZLIGINI
HARAKAT XAVFSIZLIGIGA TA’SIRINI O‘RGANISH.

Nishonboyev Ag‘zamjon Ravshanjon o‘g‘li
Toshkent Davlat Transport universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdurauf fitrat ko‘chasida harakat miqdori va tezligini harakat xavfsizligiga ta’sirini o‘rganish va yo‘llarda sodir bo‘layotgan yo‘l transport hodisalarini oldini olishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlari: *yo‘l sharoiti, harakat xavfsizligi, harakat miqdori va tarkibi, harakat tezligi, piyodalar va yo‘l transport hodisalari.*

Abstract: *This article aims to study the impact of traffic volume and speed on road safety on Abdurauf Fitrat Street and to propose measures for preventing road traffic accidents occurring in the area.*

Key words: *road conditions, traffic safety, traffic volume and composition, traffic speed, pedestrians and road traffic accidents.*

Hozirgi kunda avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini oshirish, sodir bo‘layotgan yo‘l-transport hodislari sonini va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish, yo‘l infratuzilmalarini takomillashtirish hamda yo‘l harakati ishtirokchilari uchun qulay sharoitlar yaratish kabi masalalar davlat darajasida e’tibor qaratilayotgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash sohasida keng qamrovli va tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda, lekin shunga qaramasdan sodir etilayotgan yo‘l-transport hodisalarining sonini keskin kamaytirishga erishish ancha murakkab vazifa bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida berilgan ma’lumotlarga ko‘ra 2024 yilda 9364 yo‘l-transport hodisasi sodir etilib, ularda 2203 nafar fuqaro vafot etgan va 8901 nafar fuqaro turli tan jarohat olganlar. Ushbu yo‘l-transport hodisalarining aksariyati piyodalar ishtirokida sodir etilgan.

Avtomobil yo‘llarida YTH sonini ortib ketishi oqibatida jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan oilada sog‘lom muhitni noto‘g‘ri shakillanishiga olib keladi va buning natijasida oilaning iqtisodiy hamda ma’naviy-ahloqiy jihatdan mustahkamlanishiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shahar ko‘chalarida sodir bo‘layotgan yo‘l-transport hodisalarining yuzaga kelishida harakat miqdori va tarkibining o‘zgarishi hamda piyodalar harakat yo‘nalishining o‘rni eng asosiy ko‘rsatgichlardan biri deb hisoblash mumkin.

Toshkent shahar Mirobot tumani hududidan o‘tuvchi Abdurauf fitrat ko‘chasida tadqiqot ishlari olib borildi. Abdurauf fitrat ko‘chasida harakat miqdori va tarkibini o‘zgarish


“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

qonuniyatlarini aniqlash va harakat xavfsizligini oshirish maqsadida tadqiqot ishlari olib borildi. Abdurauf fitrat ko‘chasidagi harakat miqdori va tarkibining soatlar davomida o‘zgarishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Soat	Yengil avtomobil	Yuk avtomobil			Avtobus	Velosiped	Jam
		2-5 t	5-8 t	8t yuqori			
8 ⁰⁰ -8 ⁰⁵	73	2			1		76
8 ⁰⁵ -8 ¹⁰	81	1	1		1		84
8 ¹⁰ -8 ¹⁵	74		3		4		81
8 ¹⁵ -8 ²⁰	80	3	1		4		88
8 ²⁰ -8 ²⁵	85		1		1		87
8 ²⁵ -8 ³⁰	74	2	3		5		84
8 ³⁰ -8 ³⁵	72	2	1		4		81
8 ³⁵ -8 ⁴⁰	100	3			3		106
8 ⁴⁰ -8 ⁴⁵	83	4	1		2		90
8 ⁴⁵ -8 ⁵⁰	92	1			1	1	96
8 ⁵⁰ -8 ⁵⁵	94	1			1		96
8 ⁵⁵ -9 ⁰⁰	71	4	3		3		81
9 ⁰⁰ -9 ⁰⁵	76	1	2		2	1	82
9 ⁰⁵ -9 ¹⁰	90	3	1		4		98
9 ¹⁰ -9 ¹⁵	91	4	1		3	1	100
9 ¹⁵ -9 ²⁰	78	2	1	1	4		86
9 ²⁰ -9 ²⁵	94	8	3		3		108
9 ²⁵ -9 ³⁰	91	2	1		1		95
9 ³⁰ -9 ³⁵	86	2	1		1		90
9 ³⁵ -9 ⁴⁰	87	4	1		3		95
9 ⁴⁰ -9 ⁴⁵	105	8	2		5		119
9 ⁴⁵ -9 ⁵⁰	112	3	1		4		120
9 ⁵⁰ -9 ⁵⁵	69	4	2		2	1	76
9 ⁵⁵ -10 ⁰⁰	72	2			1		75
Jami	2030	66	30		64	4	219 5

Buni amalga oshirish uchun Gaydar Aliyev va Abdurauf fitrat ko‘chalari kesishmasi atrofida tadqiqot ishlarini amalga oshirildi. Kuzatuvlar natijasida shu ma’lum bo‘ldiki transport vositalari harakat miqdori asosan vaqtlar oraligida o‘zgarishi kuzatildi.




1-rasm. Transport oqimi harakat miqdorining soatlar bo‘yicha o‘zgarish grafigi.

Abdurauf fitrat ko‘chasi hududida transport vositalari harakat jadalligini o‘zgarishi hamda yo‘llardagi piyodalarni tartibsiz harakati tadqiqot o‘tkazish jarayonida ma’lum bo‘ldi. Buning sababi shuki piyodalar yo‘lakchasining me’yor talablariga javob bermasligi, piyodalar uchun shart sharoitlarni mukammal darajada tashkil etilmaganligi va yo‘l sharoiti zamonaviy avtobuslar harakatiga to‘lliqlik javob bermasligi yo‘llarda tirbandlikni su’niy ravishda paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda deb o‘ylayman.



2-rasm. Tadqiqot ob’ektida aniqlangan harakat tarkibi siklogrammasi.

Harakat tarkibining tahlilidan aniqlandiki, harakat tarkibining 93 % ni yengil avtomobillar, 4 % ni yuk avtomobillar, 3 % ni avtobuslar va 0,2 % ni velosiped tashkil etishi aniqlandi. Bundan kelib chiqadiki, harakat tarkibi asosan yengil avtomobillardan tashkil topadi. Bu o‘z navbatida transport oqimi tavsifi yengil avtomobillar tavsifidan iboratligini ko‘rsatadi. Shu sababli ham bu yo‘lda yengil avtomobillar ishtirokidagi YTH lar ko‘p sodir bo‘ladi.



3-rasm. Kuzatish natijalarini statistik usul bilan ishlash

a) taqsimot egriligi; b) jamlangan egrilik.

Taqsimot egriligi yordamida ko‘p qaytariladigan tezlik - **modal tezlik** aniqlanadi. **Jamlangan egrilik** yordamida esa 15, 50, 85, 95 % ta‘minlanganlik tezlik qiymatlari topiladi. Jamlangan egrilikdan aniqlanadigan tezliklarni quyidagicha tahlil qilish mumkin. Bunda 15 % tezlik harakatni tashkil qilishda eng past tezlik sifatida qabul qilinishi kerak va u yordamida minimal tezlik chegaralanib, 4.7 buyuruvchi belgisi o‘rnatiladi. 50 % ta‘minlanganlikdagi tezlik qiymati oqimdagi hamma avtomobillarning **o‘rtacha qiymatini ko‘rsatadi**. 85% ta‘minlanganlikdagi tezlikka asosan yo‘l belgilari va belgi chiziqlari o‘rnatiladi. 95 % ta‘minlanganlikdagi tezlik hisobiy tezlikka teng deb qabul qilinadi va bu qiymat yo‘l elementlarini hisoblashda qo‘llaniladi.


Toshkent shahrida 2024-yilda 1280 ta yo‘l-transport hodisasi rasman qayd etilgan. Ularda 1189 kishi tan jarohati olgan va 91 kishi halok bo‘lgan. Bu raqamlar xalq deputatlari poytaxt

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

kengashining 10 fevraldagi qarorida keltirilgan. Yo‘l-transport hodisalarining asosiy qismi – 720 tasi piyodalar tomonidan sodir etilgan [2].

2024-yilning 1-iyulidagi ma’lumotlarga ko‘ra, Toshkent aholisi 3075000 nafar kishini ([O‘zbekiston aholisining](#) qariyb 9 foizi) tashkil etadi [3] aholi sonining keskin oshib borishi yo‘llarda transport vositalarini soni ko‘rsatgichining oshishiga hamda yo‘llarda sodir bo‘layotgan yo‘l transport hodisalarini yuzaga kelish extimoli ortib bormoqda.

2023 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, Toshkent shahrida jismoniy shaxslarga tegishli yengil avtomobillar soni 562,1 mingtani tashkil etmoqda. Statistika agentligi [ma’lumotlariga ko‘ra](#), bu ko‘rsatkich 2022 yilning 1 yanvar holati bilan solishtirilganda 94,9 mingtaga oshgan. 2022 yilning 1 yanvar holatiga respublikada jismoniy shaxslarga tegishli jami yengil avtomobillar soni 3051 734 tani tashkil etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida har 1000 nafar doimiy aholiga o‘rtacha 87 ta yengil avtomobil to‘g‘ri kelmoqda [4].



5-rasm. Toshkent shaharda YTH ni turlari bo‘yicha taqsimlanishi.

YTH ni kelib chiqishining sabablari tahlil qilinganda 14% da yo‘lda ajratuvchi tasma to‘siqlari yo‘qligi, 10% da 2-guruh piyodalar to‘siqlarini o‘rnatilmaganligi, 9% da yo‘llarni yoritilmaganligi, 4,1% da yo‘l sharoitining qoniqarsizligi, 1% da veloyo‘lakdalar tashkil etilmaganligi, 6% da svetofor yoki yo‘l belgisi o‘rnatilmaganligi, 3,3% da boshqa obyektiv sabablar, 14% da belgilangan tezlikka rioya qilinmaganligi, 3% da haydovchining tajribasizligi, 1% da svetofor yoki yo‘l belgisiga rioya qilinmaganligi, 17% da piyodalarga yo‘l bermaslik, 8% da quvib o‘tish qoidasini buzish, 5% da oraliq masofani saqlamaslik va 5,5% da boshqa subyektiv sabablar bo‘lgan.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, yo‘l harakati qoidalari aholi o‘rtasida hanuzgacha ta’sirchan va samarali targ‘ib qilinmaydi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolarning bu boradagi madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan materiallar yetarli darajada berilmayapti.

Xulosa qilib aytganda, yo‘l harakati qatnashchilarining huquqiy madaniyatini oshirishda nafaqat ichki ishlar organlari xodimlari, balki ta’lim tizimi, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoat tashkilotlari vakillari muhim rol o‘ynashi zarurligiga e’tibor qaratish lozim. Bundan

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

tashqari, huquqiy nigilizmga barham berish, huquqiy ongni yuksaltirish, yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash targ‘ibotini kuchaytirish har qachongidan-da dolzarbdir.

Toshkent shahar yo‘llarida harakat xavfsizligini ta‘minlash uchun avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini va qulayligini oshirish, yo‘llarda insonlar o‘limi holatlarini keskin kamaytirish, yo‘l infratuzilmalarini takomillashtirish hamda yo‘l harakati ishtirokchilari uchun qulay sharoitlar yaratish va YTHni kamaytirishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llash hamda avtomobil yo‘llarida harakatni tashkil etishning ilg‘or usullarini tadbiq etish orqali harakat xavfsizligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Azizov K.X. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. T.: -Fan va texnologiya, 2009. – 244 b.
2. <https://kun.uz/ru/news/2025/01/24/v-uzbekistane-v-2024-godu-snizilos-kolichestvo-dtp>
3. <https://uz.wikipedia>
4. <https://kun.uz/news/2023/01/25/toshkentda-fuqarolarga-tegishli-avtomobillar-soni-yarim-milliondan-oshdi>

FARG‘ONA VODIYSIDA SODIR BO‘LGAN YO‘L TRANSPORT HODISALARNING YUZAGA KELISH SABABLARINI O‘RGANISH.

Tirkashev Sunnatjon Sobir o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti QIN-1-24 guruh talabasi

+998935549306

Jahonda yo‘l harakati xavfsizligini oshirishda yo‘l infratuzilmalarini takomillashtirishga, yo‘llarda harakat ishtirokchilari uchun xavfsiz va qulay harakat sharoitini ta‘minlashga, yo‘l harakatini tashkil qilish va boshqarishda intellektual tizimlardan keng foydalanishga, yo‘llarda inson o‘limi darajasini keskin kamaytirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra “...yo‘l-transport hodisalari (YTH)dan dunyo bo‘ylab har yili 1,19 million kishi, har kuni 3200 kishi yoki har daqiqada 2 kishi halok bo‘lmoqda, yiliga 50 million kishi (shundan 240 mingi bolalar) YTH oqibatida jarohatlanmoqda, ularning ko‘pchiligi umrbod nogiron bo‘lib qolmoqda”. Bu borada, jumladan yo‘llarda YTHning kelib chiqishiga yo‘l sharoiti ta‘sirini baholash, YTHni hisobga olishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash va hisobga olishning tezkor usullarini yaratish hamda YTHga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni baholash va modellashtirish asosida yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.